



Green University



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**BUXORO VILOYAT EKOLOGIV, ATRUF MUHITNI MUHOFAZA**  
**QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI BOSHQARMASI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**  
**GREEN UNIVERSITY - MARKAZIY OSIYODA ATRUF MUHIT VA**  
**IQLIM O'ZGARISHINI O'RGANISH UNIVERSITETI**  
**KAZAN FEDERAL UNIVERSITETI**  
**TYUMEN DAVLAT UNIVERSITETI**  
**M. AKMULLA NOMIDAGI BOSHQIRDISTON DAVLAT**  
**PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**OMSK DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**  
**UI GREENMETRIC - XALQARO REYTING AGENTLIGI**

**IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA CHO'L - VOHA**  
**EKOSISTEMASI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR**  
**MAVZUSIDAGI XALQARO SIMPOZIUM**

## **MATERIALLARI**



**BUXORO - 2023**

va tasdiqlandi. Hujjat ilgari qabul qilingan ozoq qatlamning holatini tartibga soluvchi deklaratsiyalar, konvensiyalar va protokollarga asoslangan edi. Konvensiya atrof-muhitni insoniyatning salbiy taʼsiridan himoya qilish uchun mujdallangan asosiy kondalarni ʻz ichiga olgan: zararli moddalar chiqindilarini cheklash, ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish, zotitizmlarni himoya qilish. Besh yil ʻtgach, konvensiyaning navbatdagi sessiyasi Yaponiyada bʻzlib ʻtdi. Unda dunyoning 190 ta mamlakatidan vakillar ʻingilib, ular Er saybʻrasiining ekologik holati haqida jiddiy xavotirda. Konferentsiya davomida ishtrakchilar 2012 yilgacha issikxona gazlari chiqindilarini kamida 5 foizga kamaytirish majburiyatini olgan hujjatni imzoladilar. Keyingi konferentsiya 2007 yil oxirida bʻzlib ʻtdi. Natijada ishtrakchilar tomondan imzolangan xalqaro kommunik (*komunikatsiya*, lotin. *kommunikatsiya* - frantsuzcha *kommunikatsiya* - xabar, uzatish - davlat hokimiyatining oliy organlari, tashqi aloqalar organlarining rasmiy xabari) qabul qilindi. Hujjat savdo va sanoat sektorining eng ʻiririk vakillarini xavodagi karbonat anhidrid chiqindilarining konsentratsiyasini kamaytirishga chaqiradi.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Янги Ўзбекистон газетаси, 2021 йил 11 ноябр, 1 б.
2. Тошбоев З.М., Ҳасимов Б.Б. Юртимизда "дархат экин куни"ни анъанага айлантирайлик. *Journal of Natural Science*. №2(7). Жизлах, 2022. 44-53 бб.

## O'RTACHO'L VOHA LANDSHAFTLARINI SAMARALI TASHKIL QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI

Mirzoyeva Istat Elmurodovna., Nematov Anvar Nusratovich  
(Buxoro davlat universiteti, O'zbekiston)

**Kirish.** Geografiya fanlar tizimida landshaftshunoslik alohida o'rin tutadi. Keyingi yillarda barcha mamlakatlarda landshaft va u bilan bog'liq sohalarga qiziqish ortib borayotgani sir emas. Bunga sabab sifatida birinchidan, kishilar orasida landshaft atamasining ommalashuvi bo'lsa, ikkinchi tomondan esa ko'pgina muammolarni yechishning "kalit"i sifatida landshaft ta'limotidan foydalanish bo'lmoqda. Dunyo aholisi sonining ko'payib borayotgani, ishlab chiqarish hajmi va ko'laminin oshishi, geoeko vaziyatning yomonlashuvi, cho'llanish, kabi global muammolar hisoblanadi. Demak, yuqoridagilarga bog'liq ravishda har qanday landshaftning barcha imkoniyatlarini o'rganish va ulardan samarali foydalanish bugunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

**Asosiy matn.** Buxoro vohasining Qiziltepa tumaniga tegishli, Ayronchi qishlog'i atrofida qadimgi dehqonchilik o'choqlaridan biri - O'rtacho'l vohasi hisoblanadi. O'rtacho'l To'dako'l suv ombori va Ko'ktosh oralig'ida joylashgan bo'lib, To'dako'l pastqamligi tomon nishab, tog'oldi tekisligidir. O'tmishda faqat cho'ponlar, karvonlar, otboqar va tuyaboqarlar uchun makon bo'lgan choeva uchun yaylov sifatida foydalanilgan O'rtacho'l sahrosi XX-asr 70-yillarining II-yarmidan o'zlashtirila boshlandi. Mazkur hudud LN.Babushkin va A.S.Hasanov (1982 yil) bo'yicha Turon provinsiyasi Qizilqum okrugining ko'yi Zarafshon tumanlar guruhiga kiradi. Bu yerda yillik ijobiy haroratning miqdori 440-4900 daraja atrofida bo'lib gidrotermik jihatdan issiq zonaga kiradi.

Qish juda yumshoq bo'lib, qish oylari juda sovuq bo'ladi. Yanvar oyida nisbiy namlik 65% atrofida bo'lsa, iyul oylarida 20% atrofida bo'ladi. Quyoshdan keladigan radiatsiyaning yalpi miqdori 150-160 kkal atrofida. Havoning yillik harorati +14 darajaga teng. Eng past harorat yanvar oyida ko'zatiladi, ya'ni bu oynin o'rtacha harorati 0 gradus atrofida, iyul oyi esa eng issiq, o'rtacha 28-29 gradus atrofida. Eng yuqori harorat iyul oyida kuzatiladi. 1961-1989-yillar davomida Quyimozor meteostansiyasi eng yuqori harorat 1967-yilning iyul oyida kuzatiladi. Eng past harorat esa -22,5 daraja bo'lib, 1969-yilning yanvar oyida kuzatilgan.

Mazkur cho'l zonasida joylashganligi tufayli tabiiy namlanish yetishmaydi. Yillik yog'in miqdori 125 mm atrofida. Ularning yillik taqsimlanishida keskinlik bor. Atmosfera yog'inlarning asosiy qismi bahor va qish oylariga to'g'ri keladi. Umuman olganda sernam, injiqli, yoz esa uzoq, quruq, jazirama issiq, o'ta yorug', kuz qisqa va turg'unsiz. Qishi ba'zida o'ta ayozli, sovuq, muqim emas [3].

Tumanda barpo etilgan kollektor - dranaj sistemasining yetarli emasligi, mavjudlarining esa vaqti-vaqti bilan tozalab turilmasligi natijasida yerlarning sug'orilishini kengaytirish natijasida tuproqning sho'rlanish jarayoni aktivligi oshuviga hamda sho'rlanish darajasining ko'tarilishiga olib keladi.

Tuproqlarning asosiy qismini (6800 gektarini) kulrang-qo'ng'ir tusli, 450 gektari sahro qumlaridan iborat bo'lgan tuproqlar tashkil etadi. 2500 gektarini taqir, taqir-o'tloq, o'tloq hamda sho'rxok tuproqlar bilan band. Umuman olganda hozirgi kunda dahada sho'rlanmagan maydonlar ko'p. O'rtacho'l vohasida hozirgi kunda o'zlashtirilib, dehqonchilik qilinayotgan hududlarning asosiy qismida nishabligi kam bo'lganligi sababli sug'orish joyida irrigatsiya erroziyasi sodir bo'lmagan. Ammo, kuchli shamol esib turishi oqibatida shamol erroziyasi sodir bo'lib turadi. Tuproqlar har qanday ekin ekish uchun yaroqli bo'lib, tuproqning sho'rlanishiga va shamol erroziyasiga qarshi kurash vositalarini ko'paytirish talab etiladi. Har 400 - 450 metr masofada shamol yo'nalishiga perpendikulyar qilib, ixota-daraxtzorlar barpo etish, sizot suvlarini qochiradigan kollektorlar sonini ko'paytirish, mavjudlarini vaqti-vaqti bilan tozalab turish kerak bo'ladi.

Umuman olganda, mavjud kollektor - drenaj tarmoqlarining chuqurligi kamida 3-4 metr uzunligi va yerlarning meliorativ holatiga qarab har gektariga 24 metrdan 160 metrgacha yetishini ta'minlash talab etiladi.

Vohada sugoriladigan maydonlar sizot suvlarini chiqarib yuborish uchun qurilgan kollektorlarning umumiy o'zunligi 523 km ni tashkil etadi. Ularning 222 km ni ochiq, 197 km ni yopiq zovurlar bo'lib, ularda tozalash ishlari olib borilmoqda.

O'rtacho'lda paxta, bug'doy, arpa, suli, zig'ir, kunjut, kungaboqar, makkajo'xori, oqjo'xori, roy, tariq, mosh, qora jo'xori kabi ekinlar, yulg'un, ajriq, yalpiz, qamish, sho'ra, bug'doyiq, sho'r ajriq, qiyog', kampirosoch, partak, yavshan, itgunafsha, suvarang, saksovol kabi yovvoyi o'simliklar o'sadi.

O'rtacho'lda o'tmishda aholi kam yashagan, faqat oz sonli cho'pon-cho'liqlargina yashagan, chorva mollari boqilgan. O'rtacho'lda bo'ri, tulki, quyon, chiyabo'ri, jayron singari yovvoyi hayvonlar yashagan. O'rtacho'lining to'rt tomoni tog'lik, saksovulzor, to'qayzor, ariq-zovurlardan iborat bo'lganligi yovvoyi hayvonlarning bu yerda jon saqlashiga imkoniyat beruvchi muhim omillar ekanligini qayd etmoq kerak.

O'rtacho'lining to'qayzorlarida, shuningdek suv atroflarida qirg'ovul, loyxo'rak, o'rdak umr kechiradi. O'rtacho'l turli xil qushlarga abadiy makon sifatida qulay va noyob makon hisoblanadi. Chumchuq, so'fitor'g'ay, chug'urchuq, zarg'aldoq, qizilishton, olaqushqarg'a, hakka kabi qushlarning makoni O'rtacho'ldir. Bu hududda sudralib yuruvchilardan: kaltakesak, toshbaqa, soliq ilon, suv iloni, ko'rmon ilon, echkiemar, qumilon, yumronqoziq, tipratikan kabi jonivorlar umr kechiradi.

Mustaqil O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilishga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bu masala qonuniy jihatdan asoslab berilgan: «Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburlar» - deyiladi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida.

Tabiatni muhofaza qilish har bir kishining muqaddas barchi ekanligini, har bir jonli mavjudotning tabiatda betakror o'rni bor ekanligini e'tirof etmoq lozim, albatta. Tabiat bo'laklari (komponentlari)dan birining o'zgarishi yoki yo'q bo'lishi uning boshqa bo'laklariga katta ta'sir ko'rsatadi. Turli xil noqulay oqibatlarga olib kelishi ehtimoldan xoli emas, albatta. O'rtacho'l vohasida bir necha asrlar mobaynida ajoyib tabiiy o'simliklar, chorva yaylovlari bo'lgan. Yerlarni o'zlashtirish natijasida qizil lola, jayron, chiyabo'ri hayoti xavf ostida qolmoqda.

Landschaftlar o'zgarishi tufayli ko'pchilik hayvonlar o'z yashash joylarini tashlab, olis yerlardan yangicha makon topish uchun ravona bo'lmoqdalar [4].

O'rtacho'lda ekologik muammolar ham ko'payib bormoqda. Navoiy shahridagi sanoat korxonalaridan olinadigan chiqindilarning qismi O'rtacho'l tabiatiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatib, noxushliklarga sabab bo'lmoqda. Kundan-kunga yer, suv, havoning ifloslanish darajasi oshib bormoqda. Hozirgi vaqtda ifloslanishining oldini olish maqsadida Navoiy viloyatida va Qiziltepa tumanida, shuningdek, O'rtacho'l vohasida ekologik komissiya va tabiatni muhofaza qilish jamiyati faoliyat ko'rsatmoqda.

«O'rtacho'l» kanali qazish 1975 yilda boshlangan, 1976 yilda suv kelgan. Dastlab paxtachilik bilan shug'ullanganlar.



1-rasm. O'rtacho'l markazi. O'rtacho'l kanali tarmog'i

1982 yilgacha 3 ta sovxoz bo'lgan. 1982 yilda yem-xashak yetishtiradigan davlat xo'jaligi bo'lgan. 11 ta sovxoz: Zarbdor, Andijon, Farg'ona, O'rtacho'l yulduzi, Elena, Kamolobod va boshqalar bo'lgan. Sovхозlar №123. Tomdi, Uchquduq, Nurota tumanlari uchun yem-xashak etishtirilgan. 1986 yilda yana sovxozlarni yiriklashtirish ro'y berdi. 9 ta sovxoz bo'ladi. 1987 yilda oktyabr 70 yilligi sovxoziga aylantiriladi. Yerlar boniteti 38, 40, 47 ballni tashkil etadi.

Bu yerdan bir vaqtlar Choydaroz soy o'tgan. O'rtacho'lda hozir o'troq 1,5 ming kishi yashaydi. №34-sonli maktab faoliyat ko'rsatmoqda. Unda 250 nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. O'rtacho'l voha landschaftlarning barqaror rivojlanishida antropogen omillarning o'rni beqiyos [2].

**Xulosa.** Voha landschaftlaridan samarali foydalanish maqsadida quyidagi tavsiyalarni berishni lozim topdik:

1. Yerlarni meliorativlash ishlarining turlari va hajmlarini hisoblab chiqish agrotexnika tadbirlarini kompleksini ishlab chiqish – kollektor-drenaj tarmoqlari ko'rish, sho'r yuvish va vegetatsion sug'orishlar, tuproqni ishlash, o'g'it solish va boshqa tadbirlarni amalga oshirish eng asosiy dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

2. O'rtacho'l vohasini o'zlashtirishda atrof-muhitni xususan tuproqni muhofaza qilishni hisobga olgan va unga rioya qilgan holda kompleks ish olib borilishi, tuproqning takroran sho'rlanishi ehtimoli, gipsli tuproqlarni erroziya jarayonlari namoyon bo'lishi mumkinligiga alohida e'tibor berilishi lozim.

3. O'zlashtirilgan O'rtacho'l vohasidan chiqarilayotgan zovur – oqova suvlarining bir qismi, hozirgi kunda To'dako'l sev omboriga tashlanmoqda. Kelgusida yuqori minerallashtirgan

va ifloslangan ushbu suvlarni Buxoro vohasining janubiy etagidagi Janubiy (Parallel) zovur tizimiga ulab yuborish maqsadga muvofiq.

#### **Adabiyotlar ro'yxati**

1. Бозоров З. Ўртачул. Намойи, 1998. 64 б.
2. Nazarov I.Q., Allayorov I.Sh., Raxmonov U., Yavmutov D. O'rtacho'l geotizimlarining antropogen omil ta'sirida cho'llashuvi va uning oqibatlari xususida. Geografik ekologiya va tabiatdan foydalanish muammolari. Toshkent, 1999, 22-24 betlar.
3. Назаров И.Қ., Аллаёров И.Ш., Рахмонов У., Явмутов Д. Ўртачул геотизимларининг антропоген омил таъсирида чуллануви ва унинг оқибатлари хусусида. "Географик экология ва табиятдан фойдаланиш муаммолари". Toshkent, 1999, 22-24 б.
4. Ergasheva M. K., Mirzayeva I., Ne'matov A. N. To'dako'l va Quyimozor suv omborlarining rekreasion imkoniyatlaridan samarali foydalanishning geografik jihatlari. O'zbekiston geografiyasi: tabiati, aholisi, xo'jaligi. Iqtidorli talabalar va yosh olimlarning ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, 2013.

### **BUXORO VILOYATI GEOEKOLOGIK VAZIYATINING ANTROPOGEN OMILLAR TA'SIRIDA KESKINLASHUVI**

**A.N.Nematov**

**BuxDU Ekologiya va geografiya kafedrasi katta o'qituvchisi**

**D.D.Qalandarova**

**BuxDU Ekologiya va geografiya kafedrasi o'qituvchisi**

**Annotatsiya** So'nggi yillarda qator global muammolar vujudga keldiki, jamiyatning bundan keyingi taraqqiyoti ana shu muammolarni hal qilish bilan bog'liq bo'lib qoldi. Global muammolar, kishilik jamiyati hayotining barcha tomonlarini, dunyo siyosatini, iqtisodini hatto davlatlararo va millatlararo munosabatlarni qamrab olmoqda. Shulardan eng muhimi ekologik muammolar bo'lib qolmoqda.

**Kalit so'zlar:** Geoekologik vaziyat, antropogen omil, shaharsozlik, transport, sanoat, ikkilamchi sho'rlanish, kimyoviy cho'llanish.

Buxoro viloyati ekologik vaziyatining keskinlashtirayotgan sabablardan biri bu antropogen omildir. Bu aholi sonini ko'payishi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Viloyat ekologik holatini buzilishiga sabab bo'layotgan antropogen omillar qatoriga kon qazish, aholi sonining ko'payishi, chorva mollarini tartibsiz boqish, zamonaviy shaharsozlik, avtomobillarning ko'payishi, sanoatning rivojlanishi, chiqindilar, xazon va boshqa yoqilg'ilarni yoqish, saksovulzorlarni o'tin uchun kesib yuborilishi kabilar kiradi.

Antropogen omillardan ekologik holatni buzilishiga sabab bo'layotgan asosiy omillar bu zamonaviy shaharsozlik va chiqindilardir. Ularning ulushi 15 % dan oshdi. Chunki avtomobillarning ko'payishi, sanoatning rivojlanishi, chiqindilar kabi muammolar ham aynan zamonaviy shaharlarning qurilishi va rivojlanishi oqibatidir.

Buxoro viloyatining ekologik xavfsizligi nuqtai nazaridan qaraganda, suv zahiralarning, shu jumladan yer usti va yer osti suvlarning keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug'dirmoqda.

Suv resurslarining tobora kamayib, ularning sifati yomonlashib borishi, bozor munosabatlariga o'tish davrida iqtisodiyotdagi va ekologiyadagi qiyinchiliklar munosabati bilan sug'orishda ishlatiladigan suvlar sifatining hamda gidromeliorativ tizimlar texnik holati sifatining yomonlashuvi (ko'p joylarda vertikal drenaj skvajinalarining ishdan chiqishi, yopiq gorizontal drenajlar, kollektor drenaj oqimlarini ekspluatatsiya qilish samaradorligining pasayishi va boshqalar), sug'oriladigan yerlar sho'rlanishini doimo monitoring o'tkazib

|  |     |
|--|-----|
| Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, Yuldoshov Laziz Tolibovich, Xodjiyeva Mayram Samadovna. WATER ISSUES AND PROBLEMS IN FISH FARMING OF THE BUKHARA REGION, AS WELL AS MEASURES TO SOLVE THEM..... | 76  |
| Esanov H.Q., Hamroyev D., Fayzulloev Sh. JANUBI-G'ARBIY QIZILQUM FLORASINING ZAMONAVIY SHAKLLANISH QONUNIYATLARI .....   | 79  |
| Pardayev Sh., Bozorova D. OQOVA SUVLARINI GIDROBIONTLAR YORDAMIDA TOZALASHNING SAMARADORLIGI .....   | 82  |
| Norboeva Umida Toshtemirovna, Hamroqulova Nargiza Komilovna. SOYA NAVLARI BIOEKOFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARINING ILMIIY-NAZARIY JIHATLARI .....  | 87  |
| Ярашов Кушондик Сафарович. ЎСИМЛИК ҚОПЛАМИ ЎЗГАРИШИ ВА ЧЎЛЛАНИШ ЎЧОКЛАРИНИ АНИҚЛАШДА ЎСИМЛИКЛАР ВЕГЕТАЦИОН ИНДЕКСЛАРИ КАРТАСИ (NDVI) ДАН ФОЙДАЛАНИШИ.....                                      | 90  |
| X.Juraqulov, Z.Normamatov, E.Xojiyev. GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI VA CHO'LLANISH MUAMMOLARI .....  | 95  |
| Voltaeva Zarina Azamatovna. BUXORO VOHASI SHAROITIDA G'O'ZANING O'SISH VA RIVOJLANISHIGA NOQULAY EKOLOGIK OMILLARNING TA'SIRI .....  | 103 |
| Atoyeva Ruxsora Odilovna, Komilova Aziza Asror qizi. BUXORO VILOYATI SHAROITIDA MOSH NAVLARINI MAHALLIYLASHTIRISH .....  | 107 |
| Doniyorov Boymurod Normurotovich. BUXORO VOHASIDA REMIZ CORONATUS (SEVERTZOV, 1873) NING BIOLOGIYASIGA DOIR MA'LUMOTLAR.....   | 108 |
| Muratova Gulnara Saidovna. IQLIMNI MO'TADILLASHTIRISHDA MANZARALI DARAXTLARNING AHAMIYATI VA TURAR JOYLARNI KO'KALAMZORLASHTIRISH.....   | 110 |
| Назарова Фирюза Ахмеджановна. ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА В УЗБЕКИСТАНЕ. ....  | 113 |
| Atoyeva Ruxsora Odilovna, Abdullayeva Yulduz, Atoyeva Dilnora. MOSH NAVLARIDA STIMULYATORLARNI QO'LLASHNING AHAMIYATI .....  | 116 |
| <b>III. Чўл-воҳа ландшафтлари ва уларни оқсолов ташкил этишининг географик асослари.....</b>   |     |
| Латыпова Захира Бадретдиновна. ПОЛУПУСТЫНИ И ПУСТЫНИ РОССИИ: ОСОБЕННОСТИ И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ.....  | 119 |
| Шарапов Денис Вячеславович. РОЛЬ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА В КОЛЛАПСЕ БАКТРИЙСКО-МАРГИАНСКОЙ ОАЗИСНОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ БРОНЗОВОГО ВЕКА .....  | 122 |
| Svinin Anton Olegovich. AMPHIBIANS FROM ARID ECOSYSTEMS OF TAJIKISTAN: HISTORICAL AND NEW RECORDS OF DESERT SURVIVORS .....  | 125 |
| Рафиков Вахоб Асломович. ЭКСТЕРНАЛИИ ПУСТЫННЫХ ТЕРРИТОРИАЛЬНО-ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ КОМПЛЕКСОВ .....  | 128 |
| Norboeva Umida Toshtemirovna, Idiyeva Umida Akbarovna. O'ZBEKISTON CHO'L MINTAQASI EKOTIZIMLARINING GEOEKOLOGIK MUAMMOLARI.....  | 131 |
| Qaribonov Pahlavon Rustamovich. TEKISLIK MINTAQASI SHAHARLARI VA ULARNING IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA RIVOJLANISHI .....   | 134 |
| Ходжаплатов А.Н., Боймуратов С.М., Қушатов Ш.Н. АРИД МИНТАҚА ВОҲА ВА ЧЎЛ ЭКОТИЗИМЛАРИНИНГ ЎЗARO ТАЪСИР МОҲИЯТИ.....  | 138 |
| Расулов Анвар Баходирович. ЛОКАЛ ХУДУДЛАР БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ ХУСУСИДА .....  | 141 |
| Алламуратов М.О. ОРОЛ ДЕНГИЗИНИНГ КУРИГАН ХУДУДЛАРИДА ЯШИЛ ЎРМОН БАРПО ЭТИШНИНГ ИСТИҚБОЛИ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....  | 151 |
| Томбоев Зафаржон Махрамқулович, Сунатов Ҳасан. ИКЛИМ ЎЗГАРИШИ ВА УНГА МОСЛАШУВ.....  | 153 |
| Mirzoyeva Istat Elmurodovna, Nematov Anvar Nusratovich. O'RTACHO'L VOHA LANDSHAFTLARINI SAMARALI TASHKIL QILISHNING GEOGRAFIK JIHATLARI .....  | 157 |
| A.N.Nematov, D.D.Qalandarova. BUXORO VILOYATI GEOEKOLOGIK VAZIYATINING ANTROPOGEN OMILLAR TA'SIRIDA KESKINLASHUVI.....   | 160 |